YENGIL SANOAT YO‘NALISHIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA DUAL TA’LIMNING AHAMIYATI

Rasulova Mastura Kabilovna
Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti professori
Miryunusova Umida Baxtiyorovna
Yakkasaroy tumani 73-maktab o’qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada dual ta’limining maqsadi, uni qo’llash afzalliklari, xorijiy olimlar fikri o’rganilgan. Dual ta’limi tizimi asosida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini aniqlash va rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, dual ta’lim modelida nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash orqali talabalarning kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirishning samaradorligi, talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarining amaliyotga mosligini baholash hamda ularni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Yengil sanoat yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda dual ta’limning ahamiyatli jihatlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Dual ta’lim, kasbiy kompetensiyalar, kreativlik, raqamli texnologiyalar, mehnat bozori, baholash tizimi, amaliy ko‘nikmalar.

Аннотация: В этой статье обсуждается цель дуального образования, его применение и мнение зарубежных ученых. Проанализированы вопросы определения и развития профессиональных компетенций студентов на основе дуальной системы обучения. В модели дуального обучения также освещены вопросы эффективности формирования профессиональных навыков студентов путем обеспечения гармонии теории и практики, оценки соответствия знаний, навыков и навыков студентов практике и их развития. В развитии профессиональных компетенций студентов, обучающихся в сфере легкой промышленности, представлены важные аспекты дуального обучения.

Ключевые слова: Дуальное образование, профессиональные компетенции, креативность, цифровые технологии, рынок труда, система оценивания, практические навыки.

Annotation: This article discusses the purpose of dual education, its application and the opinion of foreign scientists. The problems of definition and development of professional competences of students based on the dual system of education are analyzed. In the model of dual training, the questions of the effectiveness of the formation of professional skills of students by ensuring the harmony of theory and practice, assessment of the correspondence of knowledge, skills and abilities of

ISSN 3030-3907

students to practice and their development are also covered. Important aspects of dual education are presented in the development of professional competencies of students studying in the field of light industry.

Keywords: Dual education, professional competencies, creativity, digital technologies, labor market, assessment system, practical skills.

Kirish

Hozirgi kunda mehnat bozori jadal rivojlanib borayotgan sharoitda ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16 yanvardagi 14-son “Oliy ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori mazkur ta’limni rivojlantirish bo‘yicha dasturi amal bo‘lib hizmat qilmoqda [1].

Kasb ta’limida dual ta’lim tizimini qo‘llash – nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni uyg‘unlashtirish orqali talabalarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Dual ta’lim tizimi asosida zamonaviy texnologiyalarni o‘qitish jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini aniqlash va rivojlantirish – ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlashning muhim shartlaridan biridir. Dual ta’lim – bu nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lashga qaratilgan o‘qitish tizimi bo‘lib, u ta’lim muassasalari va ish beruvchilar o‘rtasida yaqin hamkorlikni ta’minlaydi. Natijada talabalar nazariy mashg‘ulotlardan tashqari korxonalarda ishlab amaliyot o‘tash imkoniga ega bo‘ladilar [2].

Dual ta’lim tizimi bo‘lajak mutaxassislarning ijodiy fikrlashlari, aqliy tafakkuri, bilim olishdagi faolligi, mulohaza yuritish mustaqilligi, o‘z bilimini mustaqil boyitib borishga bo‘lgan ehtiyojini oshirish, barcha jarayonlarni tahlil qilish, umumlashtirib, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar asosida uzviylashgan mantiqiy xulosalar chiqarishga katta yordam beradi. Dual ta’lim tizimi ishlab chiqarish bilan ta’lim jarayonini integratsiya qilishga asoslangan bo‘lib, talabalarga nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatini yaratadi. Dual ta’lim orqali aniqlanadigan kasbiy kompetensiyalar: texnologik jarayonlarni tushunish va boshqarish; asbob-uskunalar bilan ishlash ko‘nikmalari; innovatsion texnologiyalardan foydalanish; ish xavfsizligi qoidalariga rioya qilish; jamoada ishlash va muammolarni hal qilish qobiliyatidir. Bu tizim ayniqsa mutaxassislik fanlari bo‘yicha ta’lim olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayonida raqamli texnologiyalar va zamonaviy texnik vositalardan foydalanish, talabalar kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda juda katta ahamiyatga ega [3-4].

ISSN 3030-3907

Respublikamizda to'qimachilik va yengil sanoat sohasining jadallik bilan rivojlanishida malakali kadrlarning o'rni alohida e'tiborga loyiq. Bugungi kunda tikuvchilik sanoatida yuqori sifatli, aholi ehtiyojini qondiradigan, xorijiy kompaniya mahsulotlari bilan raqobatlasha oladigan zamonviy tikuv buyumlarini ishlab chiqarish va shunga ixtisoslashgan ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikni kengaytirish maqsadida kreativ fikrlovchi va innovatsion yondashuvga ega malakali kadrlarga, bir qiyofada aks etgan dizayner-modelyer, modelyer-konsruktor, texnolog va muxandis-texnologlarga ehtiyoj ortib bormoqda [5].

Dual ta'limning asosiy maqsadi – mehnat bozorida talab etiladigan malakali mutaxassislarni tayyorlashdir. Dual ta'lim ishlab chiqarish va ta'lim jarayonini uzviy bog'lash orqali nafaqat talabalarning amaliy ko'nikmalarini oshiradi, balki ish beruvchilar uchun ham muhim afzalliklar yaratadi. Bu metod ishlab chiqarish sohasida, xizmat ko'rsatish sohasida, texnika va texnologiya yo'nalishlarida keng qo'llanilishi mumkin. Dual ta'lim konsepsiyasi birinchi marta Germaniyada XX asrning ikkinchi yarmida rivojlangan. Bu davrda ishlab chiqarish korxonalarida malakali ishchilarga bo'lgan ehtiyoj kuchaygan. Hozirgi kunda dual ta'lim tizimi Germaniyadan tashqari Shveytsariya, Avstriya, Janubiy Koreya va boshqa ko'plab mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda [6].

Maurer va **Gonon** ta'kidlaganidek, dual ta'lim modeli yoshlarni kasbiy malaka bilan ta'minlashda samarali usul hisoblanadi va bu tizim yoshlarning ish bilan ta'minlanish darajasini oshirishga yordam beradi. Dual ta'lim pedagogikasining asosida construktivizm nazariyasi yotadi, ya'ni talabalar bilimlarni faol va mustaqil ravishda o'zlashtirishi lozim. Bu nazariyaga ko'ra, bilimlarni amaliy tajriba orqali egallash samaraliroqdir. Shu bilan birga, dual ta'lim kognitiv psixologiya va ko'nikmalarni rivojlantirish nazariyalari bilan ham uyg'unlashgan. Dual ta'limning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: amaliyotga yo'naltirilganlik, ishlab chiqarish va ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlik, individual yondashuv, talabalarning mustaqilligi va faolligidir [7].

Dual ta'limning afzalliklari tabalarga ishlab chiqarish bilan aloqalar, amaliyotga asoslangan o'qitish, ishga joylashish imkoniyatlari hamda ishlab chiqarish jarayoni bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Talabalar nazariy bilimlarni amaliyotda tatbiq etish orqali ularni yaxshiroq o'zlashtiradilar. Bu ularning kasbiy ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Dual ta'lim orqali talabalar o'zlarining kelajakdagi ish beruvchilari bilan aloqalar o'rnatadilar, bu esa ularning ishga joylashish imkoniyatlarini oshiradi [2].

ISSN 3030-3907

Renold va **Wolter** ta'kidlaganidek, dual ta'lim tizimi yoshlarni ishga joylashish imkoniyatlarini oshiradi va ularning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Dual ta'lim texnik va kasb-hunar ta'limi, iqtisodiyot, axborot texnologiyalari va xizmat ko'rsatish sohalarida qo'llanilishi mumkin. Bu sohalarda dual ta'lim talabalarning kasbiy ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga qaratilgan [8].

Dual ta'lim tizimida talabaning kasbiy kompetensiyalarini aniqlashda amaliy mashg'ulotlar muhim o'rin kasb etadi. Ishlab chiqarish korxonalarida amaliy mashg'ulotlarni dual ta'lim tizimi orqali o'qitish jarayonida talabalar texnologik jarayonlarni chuqur o'rganishadi; ishlab chiqarish korxonalarida ishtirok etish orqali kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lishadi; ish beruvchilar bilan bevosita muloqot qilish orqali kasbiy etikaga rioya qilish, jamoada ishlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi; ishlab chiqarish muhitida texnologik jarayonlarni amalda bajarish orqali innovatsion texnologiyalar bilan ishlash tajribasini egallashadi.

Shunday ekan, talabalarda kasbiy kompetensiyalarni aniqlash yo'llari– ta'lim jarayonida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarining amaliyotga mosligini baholash hamda ularni rivojlantirish uchun asosiy bosqich hisoblanadi [9-10].

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim-talabalarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish imkoniyatini beradi. Kompetensiyaviy yondashuvga bog'langan ta'lim talabalarda mustaqillilik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, kutilmagan vaziyatga moslasha olish, tashabbuskorlik, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarni shakllantiradi [11].

Oliy ta'limdagi yengil sanoat yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar kelajakda o'z mutaxassisliklari bo'yicha yetuk kadr bo'lib shakllanishlari uchun quyidagi kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lishlari lozim, bular: ishlab chiqarishda texnologik jarayonlarni tushunishi va boshqara olishi; asbob-uskuna va jihozlar bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi; innovatsion texnologiyalardan foydalana olishi; mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya qila olishi; jamoada ishlash va muammolarni hal qila bilish qobiliyatidir. Bu esa talabalarning nazariy va amaliy bilimlarni egallash jarayonida raqamli texnologiyalar va zamonaviy texnik vositalardan foydalanish orqali kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda juda katta ahamiyatga ega [5,12].

ISSN 3030-3907

Yengil sanoat yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda joriy etilgan dual ta’limining o‘rni katta . Zamonaviy kadrlarni tayyorlashda dunyo tajribasida muvaffaqiyat qozongan dual ta’limini qo‘llash soha korxonalari uchun malakali mutaxassislarni tayyorlashda eng samarali ekanligi tajribalarda o’z aksini topmoqda. Aynan shu yo‘nalishda Savdo sanoat palatasi, tadbirkorlar hamda Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti jamoasi birgalikda Yangi O‘zbekistonda yoshlarga ta’lim berishda va ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda dual ta’limni qo‘llash orqali uni yangi bosqichga olib chiqish, bitiruvchilarning o‘z sohasida yetuk, zamonaviy mutaxassis bo‘lib yetishishi bilan bir qatorda ularning biznesga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularni yirik korxonalarning hamkori sifatida tadbirkor qilib tayyorlash ustida ish olib bormoqda [13].

Olib borilgan tahlillar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, kasbiy kompetensiyalar talabalarning o‘z kasbiga xos bilimlari, malakalari va ko‘nikmalarining to‘plami bo’lib, bo‘lajak mutaxassisning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur hisoblanadi va ularning rivojlanishi mutaxassisning kasbiy ma’suliyatini shakllantirishga yordam beradi. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali talabalar nafaqat o‘z malakalarini oshiradi, balki ularning kelajakdagi yetuk mutaxassis sifatida ma’suliyat va vazifalarni bajarishdagi ishonchi ham ortadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkunki, jadallik bilan rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyotida kasbiy kompetensiyalarni mukammal o‘zlashtirgan talabalar, mehnat bozorida sifatli, hamyonbop hamda zamon talabiga javob bera oladigan mahsulotlar ishlab chiqaradi va raqobatbardosh kadr, o‘z kasbining yetuk mutaxassisi sifatida ommaga namoyon bo‘ladi. Dual ta’lim tizimi orqali tahsil olgan talabalarda mustaqil qaror qabul qilish, texnologik jarayonlarni boshqarish va innovatsion loyihalarni amalga oshirish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Dual ta’lim tizimi asosida talabalarning bilim va ko‘nikmalarini aniqlash texnologik innovatsiyalarni joriy qilish, raqamli platformalardan foydalanish va ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikda baholash orqali amalga oshiriladi.

Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish talabaning dunyoqarashi keng, o‘z kasbiga qiziqadigan va istak hosil qila oladigan, tajribalar orttirish, kreativlik, innovatsion faoliyat, turli shart sharoitlarga moslasha oladigan, zamon talablarini to‘g‘ri anglay biladigan va qaror qabul qila oladigan kadrlar bo‘lib yetishishini ta’minlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

ISSN 3030-3907

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16 yanvardagi 14-son “Oliy ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori

2. Ashurova S.Y, Umataliyeva K. T, Dual ta’lim metodlari: Nazariy asoslari,modellari va qo‘llanilishi, ma’naviy-ma’rifiy jurnal. 2024 yil 2-son.

3. Sharipov Sh.S., Raxmonova V.Q. Oliy va Professional ta’lim tizimida dual ta’lim orqali fanlararo uzviylikni ta’minlash.Ma’naviy ma’rifiy jurnal. 2024 yil 2-son.

4. “Ipak yo‘li” turizm xalqaro universiteti rasmiy veb-saytida chop etilgan “Dual ta’lim – ta’lim sifatini oshirishning samarali usuli!” maqolasi

5. M.K.Rasulova. Malakali kadr-davr talabi. Ma’rifat gazetasi. 2024 yil 9-oktyabr, 41-son.

6. Sharipov Sh.S., Raxmonova V.Q. Oliy va Professional ta’lim tizimida dual ta’lim orqali fanlararo uzviylikni ta’minlash.Ma’naviy ma’rifiy jurnal. 2024 yil 2-son.

7. Maurer, M., Gonon, B. (2014). Dual Education: A Conceptual Analysis. European Journal of Education, 49(4), 560-DOI: 10.1111/ejed.12098;

8. Renold, U., Wolter, S. (2019). Dual Education Systems: The Role of Vocational Training in Youth Employment. Economics of Education Review, 72, 37-50. DOI: 10.1016/j.econedurev.2019.04.001;

9. . Raximova S. S. “Dual ta’lim tizimi va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish” // Pedagogik innovatsiyalar jurnali. – 2023. – №2. – B. 45–50.

10. Mavlonova R. A. “Kasbiy pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish” – Toshkent: Fan, 2018.

11. Qodirov G‘.O‘. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi evrestik topshiriqlar va ularning ahamiyati. Respublika miqyosida ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyalar to‘plami. 2024 yil 15-oktyabr.

12. . Ismailova Z., Choriev R., Musurmanova A., Aripjanova M. Methods of training of teachers of university on advanced training courses. vol 7, Issue 5, 2020

13. Vahobov D. “Malakali kadrlar tayyorlashda dual ta’limning ahamiyati” O‘zA. 2023 yil 24-noyabr

ISSN 3030-3907